

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

K.Kodirov	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish	118
B.Jumayev	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
U.Usarov	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariiga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
SH.Tosheva	
VIII – XII asrlarda O'rta Osyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari	133
ADABIYOTSHUNOSLIK	
A.Sabirdinov	
Tuganmas ilhom manbai	138
Q.Yo'ichihev	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar	142
G.Mashrapova	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar	148
SH.Jumanova	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi	151
E.Shevchenko	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha	155
G.Nazarova	
Ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
D.Xusenova	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
TILSHUNOSLIK	
X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova	
Erqonimlarning leksik-semantik xususiyatlari	169
N.Achilova	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri	173
Sh.Sultonova, O.Usmonov	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida	178
Z.Akbarova, G.Sodiqova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari	182
I.Saydamatov	
Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari	186
Sh.Amonturdieva	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralangvistik omillar	191
M.Batirxanova	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funktsiyalarining tadqiqi	195
N.Djalilova	
Nofilologik oly o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetentsiyasi	199
A.Zinatullina	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar	203
MATEMATIKA	
A.O'rinnov, M.Azizov	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chejaraviy masala	207
K.Xalilov	
Singulyar koefitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
T.Xasanov	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

SAFAR SEMANTIKASI VA GENEZISIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR**SEMANTICS OF TRAVEL AND DISCUSSIONS ON GENESIS****СЕМАНТИКА ПУТЕШЕСТВИЯ И РАССУЖДЕНИЯ О ГЕНЕЗИСЕ****Mashrapova Gulsanam Axadovna¹****¹Mashrapova Gulsanam Axadovna****- FarDU tayanch doktoranti.****Annotatsiya**

Halq og'zakijodiga mansub epik asarlarda, xususan, ertak va dostonlarda safar motivi yetakchi o'r'in tutadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi safar motivining genezisi va semantikasiga oid folklorshunoslikdagi qarashlarni qiyosiy-tipologik metodda o'rganishni ko'zda tutadi. Tadqiqot natijalar shuni ko'rsatadiki, safar motivining genezisi insoniyatning ilk davri bilan bog'langan, jamiyat taraqqiyoti natijasida safarning maqsadi va yo'nalishiga ko'ra semantik doirasi kengaygan. Tadqiqotning asosiy xulosasi sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylanishi jarayonida taransformatsiyasiga uchrashi ushbu motivining qahramon kamolga yetishi va shakllanish bosqichi sifatida tasvirlanishiga olib kelgan.

Аннотация

В эпических произведениях, относящихся к устному народному творчеству, в частности, в сказках и былинах, ведущее место занимает мотив путешествия. Целью данного исследования является изучение сравнительно-типологическим методом представлений фольклора о генезисе и семантике мотива путешествия. Результаты исследования показывают, что генезис мотива путешествия связан с первым периодом человечества, в результате развития общества расширился смысловой объем в соответствии с целью и направлением путешествия. Основной вывод исследования состоит в том, что преобразование реальности жизни в процессе становления художественной реальностью привело к изображению этого мотива как стадии героической зрелости и становления.

Abstract

Travel motifs dominate folklore epics, especially fairy tales and epics. The purpose of this study is to study the views of folklore on the genesis and semantics of the motive of the trip in a comparative-typological method. The results of the research show that the genesis of the motive of the journey is connected with the first period of humanity, and as a result of the development of society, the semantic scope of the journey has expanded according to the purpose and direction. The main conclusion of the study is that the transformation of the reality of life in the process of its transformation into an artistic reality led to the depiction of this motif as a stage of heroic maturity and formation.

Kalit so'zlar: motiv, ertak, mif, epik matn, mifologik qahramon, safar, motiv genezisi, teologiya, ideal qahramon.

Ключевые слова: мотив, сказка, миф, эпический текст, мифологический герой, генезис мотива, путешествие, теология, идеальный герой.

Keywords: motive, fairy tale, myth, epic text, mythological hero, journey, motive genesis, theology, ideal hero.

KIRISH

Badiiy adabiyotda qahramonlarning jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishi va inson sifatida shakllanishini ko'rsatish uchun safar motividan unumli foydalilaniladi. Folklor asarlaridan tortib antik davr, Yevropa o'rta asrlar adabiyoti, Sharq uyg'onish davri, hozirgi zamonaviy adabiyotda ham safar eng ko'p murojaat qilinadigan motivlardan bo'lib, asosan, "insonning o'zini anglash yo'li", "shakllanish va kamol topish bosqichi" sifatida metaforik belgiga ega. So'zning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratsak, "safar – sayohat, sayr, biror joyga borish. Xizmat yo'li bilan yoki sayohat qilish, uchrashish maqsadida biror yerga borish; yo'l[9:460]. Ijtimoiy hayotda turfa niyatlar bilan turli nuqtalarga harakatlanuvchi insonning epik matndagi ma'lum maqsadga yo'naltirilgan safari va uning og'zaki ijoddagi shaklini, motiv genezisiga doir qarashlarni qiyosan o'rganish tadqiqot maqsadini belgilaydi hamda motivning tarixiy taraqqiyoti, epik asardan mustahkam o'r'in olishi va badiiy-estetik funksiyaga doir ilimiyy-nazariy qarashlarni tadqiq etish muhim vazifalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Folklorshunoslikda biror obraz yoki motiv tahlilida birinchi qadam uning mifdag'i ildizlarini qidirishdan boshlanadi. Chunki nafaqat og'zaki ijod, "umuman, insoniyat shu paytgacha yaratgan yozma adabiyotning biron ulkan namunasini miflarni, mifning ishtirokisiz tasavvur qilish mumkin emas"[2:78]. Shunga asoslanib Tojiddin Rahmonov qadimgi miflarni epik motivlarning o'zagi sifatida o'rganar ekan, mifik qahramon safarining ertakdag'i transformatsiyasini quyidagicha asoslaydi: "Bu motiv qahramonlik miflаридаги мифологик субъектларни кашф qilish uchun safarga

ADABIYOTSHUNOSLIK

chiqishini eslatadi. Miflarda qahramonning keng miqyosdagi kosmos uchun kurashi ertakda diffuziyaga uchraydi va ertak qahramonining oila uchun yoki o'zi uchun biror bir narsani izlashini aks ettiruvchi tor miqyosidagi harakatiga aylanadi. Shunga qaramasdan, ertak qahramonining safari turli mif qoldiglaridan iborat rang-barang sarguzashtlarga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Safar davomida u ...qahramonlik pog'onlaridan ko'tarilib, ideal insonga aylanib boradi"[6:55].

Isomiddin Yormatov fikriga ko'ra esa mif qahramoni yovuz kuchlar tomonidan olib ketilgan, qavmdoshlari uchun zarur bo'lgan narsani(subyektni) olib kelish maqsadida yer osti dunyosiga jo'naydi, ya'ni kollektiv saodati yo'lida kurashadi va g'olib chiqadi; ertak qahramoni esa olis safarga jamoa a'zolariga zarur bo'lgan narsa uchun emas, balki o'z shaxsiy baxtiga erishish uchun otlanadi[8:35]. Safarning tarixiy ildizini kishilik jamiyatini ilk davridan qidirgan ozarbayjon folklorshunosi Nurana Orujova "ibtidoi odamni bir joydan ikkinchi joyga olib boradigan asosiy sabab bu uning ovqati edi"[11] deydi.

O'zbek halq ertaklarining yirik tadqiqotchisi G.Jalolov ertak qahramonlarining turli bahonalar bilan safarga chiqishi tugunni rivojlanishiga turtki bo'lishini qayd etadi va yor qidirib safarga chiqish qadimgi qabilaviy udum – ekzogamiya bilan bog'liq ekanini aytadi[3:73].

M.Afzalov ham yor qidirib safarga chiqish o'z qabilasidan uylanish mumkin bo'Imagan udum bilan bog'liq ekan haqida mulohaza yuritar ekan, har bir safardan ijtimoiy qimmatga ega maqsad ko'zda tutilishini ta'kidlaydi[1:41].

Bildirilgan fikrlar bir umumiyl jihat bilan birlashadi, ya'ni folklorshunoslikda muhim yo'naliш hisoblangan "mifologik mifik" nazariyasiga ko'ra har bir narsaning asosi – mifdir. Shuning uchun motivlar genezisini aniqlashda juda ko'p olimlar mana shu tamoyil asosida ish ko'radi. Lekin mavzuga ikkinchi bir yondashuv ham borki, folklordagi motivlar ildizi ideologiya bilan bog'landi. Shart-sinov motivlarini tadqiq etgan Sh.Nazarova har bir motivning kelib chiqishi "umummodel"ga asoslanishini, ilohiy voqelik hayotiy voqelik orqali adabiy voqelikka aylanishini ta'kidlaydi[5:13] va ilohiy kitoblardan olingan misollar asosida fikrini dalillaydi. Umuman, jahon adabiyotshunosligi va falsafashunosligida "azal kitobi"ga arxetip sifatida qarovchi, motivlar asosini marosimlar orqali ilohiyotdagi voqelik va qarashlarga bog'lovchi tadqiqotlar mavjud. Agar safar motivini mana shu yo'naliшda, mohiyatan teologik qarashlarga tayanib tahlil etsak, odamzodning birinchi safari Odam Ato va Momo Havoning do'zaxdan quvilishi va yerda bir-birini topgunicha hamda Alloh tavbalarini qabul qilgunicha sarosar kezishlari deyish mumkin. Alloh elchilar – payg'ambarlar tarixi shuni ko'rsatadiki, dinni keng yoyish va sinovdan o'tish uchun safar hamisha muhim vosita hisoblangan. Tasavvuf ilmida ham safarga insonni o'zini anglash yo'li sifatida qaraladi. Alisher Navoiyning tasavvufiy g'oyalar ilgari surilgan "Lison ut-tayr" asari haqida Uzoq Jo'raqulov shunday deydi: "Lison-ut tayr" ba'zi tadqiqotlarda aytilanidek, na qushlar, na murshid va solik munosabati haqida, na bolalarga qaratilgan asar, balki cheksizlik ichra o'zini qidirayotgan, mavjudiyatdan ma'no izlayotgan, komillik, yaratganning jamoli sari **safarga** chiqqan zokir (zikr qilayotgan so'fiy) haqidagi asar"[4:116]. Safarning aynan shu jihatiga yozma adabiyot namunalarida ham alohida e'tibor qaratiladi. Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanida safar leksemasiga juda muhim ma'no – asarning bosh g'oyasi yuklangan. Asar so'ngida hayotda o'z yo'lini topolmayotgan, arosatda qolgan qahramonga nisbatan "safarga chiq, qayergaligini o'zing hal qilasan"[7:150] degan jumlesi aslida yozuvchining kitobxonga anglatmoqchi bo'lgan fikridir. Faqat shaxsiy niyatlari bilan yo'lga chiqqan qahramon safar so'ngida ijtimoiy hayotdagisi o'rni, insoniylik fazilati kabi masalarga e'tibor qaratadi va shunga yetishishga harakat qiladi. Keltirilgan misollar tadqiqot yo'naliшiga qanchalik aloqasi bor? Yuqorida ta'kidlaganimizdek, adabiyotning asosiy tasvir obyekti bo'lgan insonning ma'naviy-ruhiy kamolotini, "o'sish" jarayonini, shakllanish bosqichini ko'rsatish uchun asosiy vositalardan biri safardir. Folklor asarlarda, xususan, ertaklarda qahramonning go'yoki mifologik yovuz kuchlarni yengish jarayoni, aslida, bu – insonning o'zi va nafsi ustidan g'alabasidir. Halqning o'z ideal qahramonini yaratish orzusi bu uning komil inson haqidagi qarashlari ifodasi edi. "Qorasochpari" ertagida qahramonlar o'rtasida shunday suhbat bo'lib o'tadi:

- Odam sayohatga chiqishdan oldin o'z oldiga bir maqsadni qo'yadi. Savdo yo'li bilan mol to'plash, ilm-hunar ortirish uchun yo bo'Imasa o'z shahridan norozi bo'lib chiqib ketadi, - debdi.

Nodir Qobil kulolning so'zlarini tinglab bo'lib:

- Bizning musofirchilikka chiqishdan maqsadimiz bitta: u ham bo'lsa, odam bo'lish, odamgarchilikni o'rganishdir, - debdi[10:238].

Ertak personajlari tilidan aytilgan ushbu fikrlar, aslida, uning yaratuvchisi hisoblanmish halqning bu boradagi qarashlarining badiiy ifodasidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiq etilayotgan mavzuga oid yondashuvlarning murakkabligi, ko'p qirraliligi uni yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. Diniy-falsafiy qarashlarga ko'ra inson yaralishining o'zi uning bu dunyoga safaridir. Safar chog'ida u sinovdan o'tadi. Ba'zilarning safari uzoqroq davom etadi yoki aksincha. Kimningdir yo'li ravon, boshqaniki buning teskarisi. Alaloqibat, qiynalganlar ko'proq mukofotlanadi. Tushunchaning ertakka evriliishi: kenja botir, o'gay qiz, yetim bola hamisha qiyinchilik, yetishmovchilik fonida tasvirlanadi, ertak so'ngida esa eng yaxshilariga ular ega chiqadilar. Bir qarashda bular- ertak uydirmasi, hamisha ham hayotiy voqelik bilan tutashmaydi. Lekin bu shunchaki ijodkorning estetik ideali emas, safar so'ngida nimaga ega bo'lish(mukofotlanish yoki jazolanish) haqidagi haqiqatning insoniyat ongida qayta ishlanib, kichik modelga o'tish shaklidir. Chunki diniy e'tiqodlarga ko'ra o'lim hayotning tugashi emas, vaqtinchalik faoliyatdan, abadiy jarayonga o'tish. O'lim nariji dunyoga safar emas, aksincha, safardan qaytishdir. Ma'lum muddatga asosdan ajralgan qism yana asos bilan birlashish uchun ortga qaytadi. Halqimizda vafot etganlarga nisbatan "qaytish qilibdi" jumlasini ishlatalishi beziz emas.

Ertak qahramonining safari – inson hayotining, "vaqtinchalik" diyor bo'ylab harakatining umumlashgan ko'rinishi, yo'ladi qiyinchiliklar – hayot sinovlari, mifologik personajlar fonidagi yovuz dushmanlar (ajdar, dev, yalmog'iz) – inson yengishi qiyin bo'lgan nafs qutqlari. Ularni yenga olgan qahramon – ideal qahramon, voqelar so'ngida u istagan va izlagan narsalarini qo'lga kiritadi. Diniy-e'tiqodiy shakl: nafsni yenga odam – komil inson, oxiratda u yaratganning marhamatidan bahramand bo'ladi. Ertakda hamisha qahramonga ko'makchi, homiy, yo'l ko'rsatuvchi obraz safarda hamroh bo'ladi, dushman yengish, tilsimni ochish yo'llarini o'rgatadi. Tasavvufda esa tariqat ("yo'l") maqomida pir – yo'l boshlovchining ko'rsatmalariga amal qilinadi. Har ikki ko'rinish ham bir umumiyl mazmunga tutashadi: safar – insonning sinov davri, insonning tanlagam yo'li xuddi ertakdagagi "uch yo'l motivi" kabi uning tabiatini belgilaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, safar motivi badiiy adabiyotda, xususan, halq og'zaki epik ijodida yetakchi, eng ko'p uchraydigan motivlardan biri bo'lib, harakatlanish yo'naliishi (yer osti, osmon, o'zga mamalakatlar) va maqsadi (yor izlash, g'aroyib buyum yoki jonivorni keltirish, qahramonlik ko'rsatish va h)dan qat'iy nazar bir umumiyl jihatni – qahramonning sinovdan o'tish, shakllanish hamda kamolga yetish bosqichi sifatida juda muhim badiiy-estetik vazifa bajaradi. Ushbu motivning genezisi va tarixiy taraqqiyoti haqida ko'plab fikrlar bildirilgan bo'lib, ularning barchasini bir maqola doirasida tadqiq etish imkonsiz. Bu bizga muammoni yana-da sinchiklab o'rganish va izchil davom ettirish mas'uliyatini yuklaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Afzalov M. O'zbek halq ertaklari haqida - T.: Fan, 1964. (Афзалов М. Об узбекских народных сказках)
2. Jabbor Eshonkul. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini: F.f.d. diis. – T, 2010. (Джаббор Эшонкул. Сны и их художественная интерпретация в узбекском фольклоре)
3. Jalolov G'. O'zbek halq ertaklari poetikasi. - Т.: Fan, 1976. (Жалолов Г'. Поэтика узбекских народных сказок.)
4. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMU, 2015. (Джуракулов Ю. Проблемы теоретической поэтики: автор, жанр, хронотоп. - Т.: Гафур Гулям)
5. Nazarova Sh. Xayol va haqiqat folklor va teologiya kesimida. -Т.: Mumtoz so'z, 2013.(Назарова Ш. Воображение и реальность на перекрестке фольклора и теологии)
6. Rahmonov T. Qadimgi miflar o'zbek folklori epik motivlarining o'zagi sifatida: F.f.n. diss. –T, 1997. (Рахмонов Т. Древние мифы как ядро эпических мотивов узбекского фольклора)
7. Ulug'bek Hamdam. Isyon va itoat. Yangi asr avlodi. – T, 2018.(_Улугбек Хамдам. Восстание и послушание. Новое поколение.)
8. Yormatov I. O'zbek halq qahramonlik eposi badiiyati. F.f.d. diss. T, 1999.(_Ёрматов И. Искусство узбекского народного героического эпоса)
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jiddlik. 3-jild.T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.(Аннотированный словарь узбекского языка. 5 томов. 3-том.Т.: Государственное научное издательство «Национальная энциклопедия Узбекистана»)
10. O'zbek halq ertaklari. 3 jiddlik. 1-jid. – T.: O'qituvchi NMU, 2007. 238-b. (Узбекские народные сказки. 3 тома. 1-джид. - Т.: Преподаватель НМИУ)
11. International Academy Journal Web of Scholar ISSN 2518-167X 26 2(44), February 2020.(_Журнал Международной академии Web of Scholar)

(Taqrizchi: A.Sabirdinov - filologiya fanlari doktori)